

Feruza Madrimovna Ruzimova
Urganch davlat universiteti
ruzimovaferuza11@gmail.com

JADIDCHILIK HARAKATI VA "YOSH XIVALIKLAR"NING MA'NAVIY-MA'RIFIY QARASHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati, uning asosiy maqsadi, jadidchilik harakatining asoschilari, shuningdek, "Yosh xivaliklar" jadidchilik harakatining shakllanishi, ularning mafkuraviy-ma'rifiy g'oyalari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, jadidchilik harakati, "Yosh xivaliklar", Muvaqqat hukumat, ijtimoiy hayot, milliy qadriyatlar.

ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДИЗМ И ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ «ЮНЫЕ ХИВИНЦЫ»

Аннотация: В статье даётся анализ движения джадидов, его основной цели, основоположников, а также, информатии формирования, идеологически-просветительской идеологии джадидского движения "Молодые хивинцы".

Ключевые слова: Джадид, Джадидистское движение, "Молодые хивинцы", Временное правительство, общественная жизнь, национальные ценности.

THE JADIDISM MOVEMENT AND THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL VIEWS OF THE "YOUNG PEOPLE OF KHIVA"

Annotation: This article analyzes information about the Jadidism movement, its main goal, the founders of the Jadidism movement, as well as the formation of the "Young Khiva" Jadidism movement, their ideological and educational ideas.

Keywords: Jadid, Jadidist movement, "Young people of Khiva", Provisional government, public life, national values.

Kirish. Darhaqiqat, jadid bobolarimiz asarlari mazmuniga tobora chuqur kirib borar ekanmiz, bu asarlarning dunyoga kelganiga qariyb yuz ellik yildan oshgan bo'lsa-da, ularda ko'tarilgan muammolar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolayotganini ko'ramiz.

O'zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo'lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lgan davrdir. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi yoki shu yo'lda e'tiborga molik katta ishlarni bajardi.

Ma'lumki, "jadid" so'zi "yangi", "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo'lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramagan bo'lsin. Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham xalqning peshqadam ziyolilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangi g'oyalarni "ishlab chiqishadi".

Ammo shu tanazzulning "issiq bag'ri"da yashayotgan, shunga ko'nikma hosil qilgan ayrim kishilar bu hayotbaxsh g'oyalarni nayza bilan qarshi olishadi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shunday holat yuz berdi. Turkiston, Buxoro va Xivada, shuningdek, ayrim xorijiy Sharq mamlakatlarida junbishga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati katta to'siqlarga uchradi.

Turkistonda jadidchilik harakatining rahbarlari sanalgan Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi rolni o'ynashgan.

Buxoroda - Fayzulla Xo'jaev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa - Polvonniyoz Yusupov bu harakatga boshchilik qilishgan.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to'ldiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma'naviy barkamollikka etishda dini to'g'ri anglab tushunib etishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg'or demokratik institutlarni bunyod qilish, o'ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg'or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi.

Jadidlarning xalqaro aloqa va munosabatlari ularga Rossiya, Turkiya, Misr, Eron jadidlarining dasturi bilan tanishish imkonini berdi. Lekin Turkiyadagi yosh turklar va Eron taraqqiyparvarlari tajribalarini Turkiston jadidlari mexanik tarzda va o'sha qolipda o'zlashtirib olmadilar. Aksincha, jadidlar Yevropa va Sharq mamlakatlarining davlat qurilishi va qonun chiqaruvchilik keng tajribalaridan, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi demokratik harakatlar kurashi usullari va dasturlaridan manfaatlariga hamohang bo'lgan va milliy madaniyatga mos keladigan zarur o'rinlarni oldilar.

1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi jadidlarning fikrlarini ancha siyosiy lashtirdi. Bu vaqtga kelib ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida yozdilar, fuqarolarning davlat organlarining shakllantirishda qonun chiqarish ishida, davlatni idora qilishda qatnashuvi va ishtiroki yo'llari va usullarini ishlab chiqishga urindilar.

1917-yilda fevral oyida Rossiyada sodir bo'lgan demokratik inqilobga qadar taraqqiyparvarlar oqimini tashkil qilgan Turkiston jadidlarining keskin harakat qiluvchi qismi bir qator keng siyosiy talablarni ilgari surdi. Bu talablar orasida mahalliy tub aholi huquqlarini kengaytirilishini ko'zda tutgan holda o'lkani idora etishni tubdan isloh qilish, turkistonliklarga muayyan miqdorda Davlat Dumasidan o'rin ajratish, asosiy demokratik erkinliklarni ta'min etish va eng avvalo milliy matbuot erkinligiga erishish, chor yakka hokimligi tuzumini konstitutsiyaviy idora etish tuzumi bilan almashtirish kabi talablar o'rin olgan edi.

Fevral demokratik inqilobi natijasida o'rnatilgan yangi davlat tuzumidan so'ng jadidlar Rossiya Federativ davlati tarkibida Turkiston muxtoriyatini tashkil etish masalasini qo'ya boshladilar. Bu paytga kelib milliy ijtimoiy-siyosiy tashkilot va partiyalar tashkil topdi, hususan, jadidlar "Sho'roi Islomiy", "Turon", "Ittifoq" kabi tashkilotlarni tuzdilar.

1917-yil davomida mahalliy aholining turli-tuman ijtimoiy qatlamlarini jadidlar o'z ortlaridan ergashtirdilar, xalq orasida, ularning ongida, fikrlarida musulmonlar birlashishlari, jiplashishlari zaruriyati hissini tug'dirdilar. Biroq, oradan ko'p o'tmay jadidlar Muvaqqat hukumat va uning maxsus tashkil etilgan Turkiston Qo'mitasi (Turkkomitet Vremennogo Pravitelstva) o'lkada oldingi mustamlakachilik siyosatidan voz kechmaganligining guvohi bo'ldilar. Xususan bu holat 1917-yil noyabr oyiga rejalashtirilgan Ta'sis Majlisini chaqirish va uni tayyorlash jarayonida yuz berdi.

Muvaqqat hukumat o'zining tor, xudbin manfaatlari doirasidan chetga chiqmay, etilgan tub masalalarni hal etishga ojizlik qildi. Natijada siyosiy tuzumda o'zgarish bo'lgani holda, muhim ijtimoiy-iqtisodiy, agrar, milliy, sulh masalalari amalda echilmay qolaverdi. Bu esa mamlakat hayotining boshi berk ko'chaga kirib, tanglik, tanazzul holatlarining kuchayib borishiga sabab bo'ldi.

Jadidlar mustaqillik va muxtoriyat uchun hayot-mamot kurashi vaqti etib kelganini anglab etib mustamlakachilikni qattiq va ayovsiz tanqid qila boshladilar, oldingi konstitutsiyaviy monarxik tuzum g'oyalaridan voz kechib, Turkistonga Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy hududiy muxtoriyat berilishini talab qila boshladilar.

Jadidlarning o'sha yillardagi beqiyos xizmatlaridan yana biri barcha Turkiston xalqlari va millatlarning qonun oldida tengligi haqidagi g'oyaning ilgari surilishi bo'lib, bunga ko'ra

Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iqtisodiy-siyosiy, huquqiy va madaniy jabhalarida teng huquqqa ega bo'lishlari lozim edi.

Davlat mustaqilligi to'g'risidagi o'zlarining g'oyalarini Turkiston jadidlari mamlakatning turli ijtimoiy kuchlari bilan kelishgan holda hayotga tatbiq etishni lozim topdilar. Jadidlar Ta'sis Majlisidan o'rin olish uchun juda ko'p urindilar, g'ayrat qildilar, hatto bu jarayonda o'z saflarida taraqqiyparvarlar tomonidan tuzilgan "Sho'roi Islomiy" va jadidlarning konservativ qismidan tashkil topgan "Ulamo" jamiyati kabi tashkilotlarga bo'linish yuz berganligiga qaramasdan, birlashish yo'lidan bordilar, pirovardida bu Turkiston federalistlarining "Turk Adami markaziyati" partiyasining vujudga kelishiga olib keldi. Biroq Turkistondagi 1917 yil Oktyabr voqealari, bolsheviklarning hokimiyatga kelishi jadidlarga o'z maqsad-niyatlarining amalga oshishiga imkon bermadi.

Shunga qaramay, yangi bolshevistik hokimiyatning har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilashi haqidagi deklaratsiyasiga asoslanib, ular 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV Favqulodda qurultoyini chaqirdilar va Federativ Rossiya respublikasi tarkibida avtonomiya huquqiga asoslangan Turkiston Muxtoriyatini e'lon qildilar. Uch oygina yashagan avtonom respublika tarixi qonli sahifalardan iborat bo'lib, jadidlar ta'qib ostiga olindilar va 1937-yilga kelib g'oyaviy qarashlari sovet mafkurasiga to'g'ri kelmaganligi uchun ko'pchiligi qatag'onga uchradilar.

Jadidchilikning tariximizda tutgan o'rni va qimmatini shundaki, birinchi bo'lib mustaqillik milliy mafkurasiga asos soldi, g'aflat uyqusida yotgan mazlum Sharqni uyg'otdi va ko'zini ochdi, ozodlik, erk, milliy g'urur va sha'n haqida, buyuk ajdodlari, boy madaniyati, umuman mustamlaka istibdodi davrida unutilayozgan qadriyatlar to'g'risida jar soldi, ovoza qildi.

Jadidlarning tarixiy xizmatlari shundan iboratki, ular etilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda evolyusion islohot yo'li asosida ishlab chiqdilar, ijtimoiy-davriy tuzum o'zgarishlarining eng maksimal effektiv yo'lini taklif qildilar va mustamlakachilik tartibotini yo'q qilishni talab qildilar.

Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidlarini yo'li bir xil bo'lmagan bo'lib har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Lekin ularning hammalarini konseptual g'oyalari hozirgi davr katta o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy asoslari bo'lib xizmat qildi, keng qamrovli islohotlar yo'nalishi va bugungi kun strategiyasining nasliy o'zagi sifatida maydonga keldi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Yosh xivaliklar - Xiva xonligida jadidlar tashkil qilgan partiya (firqa) (1914-21). O'z safida milliy ziyolilar, hunarmand, dehqon, savdogarlar, islom ulamolari va ayrim davlat amaldorlarini birlashtirgan. 1914-yil avgustda Yosh xivaliklar partiyasiga Polvonniyoz hoji Yusupov asos soldi. Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sultonqori Jumaniyozov, Xudoybergan Devonov, Husaynbek devonbegi Matmurodov, Muhammadyorxo'ja Abdullayev partiyaning faollari edi. Partiyaning e'lon qilingan dasturida xon hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o'tkazish, mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish, xalqni ma'rifatli qilish mo'ljallangan.

Xiva xonligidagi 1916-yil qo'zg'olonida faol qatnashgan Yosh xivaliklarning rahbarlaridan biri qozikalon Boboovun Salimov (1874 - 1929) qo'zg'olonchilar faoliyatini yashirin ravishda boshqardi.

1917-yil fevral inqilobi Yosh xivaliklar faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, ular ochiq kurash yo'liga o'tdi. 1917-yil 5 aprelda Xiva xoni Asfandiyorxon Yosh xivaliklar taqdim etgan manifestni imzolashga majbur bo'ldi. Manifestda yangi usul maktablari ochilishi, mamlakatda temir yo'l, pochta, telegraf barpo etilishi zarurligi, davlat xazinasi nazorat ostiga olinishi, barcha amaldorlarning saylanishi va maosh bilan ta'minlanishi, butun aholining shariat oldida tengligi ta'kidlangan edi. Isloxotlar amalga oshirilishini nazorat qilish uchun 30 vakildan iborat muvaqqat qo'mita tashkil topdi. 8 aprelda mamlakatni boshqarish uchun Xivada xon huzurida Majlis (raisi - Boboovun Salimov) va Nozirlar Kengashi (raisi Husaynbek devonbegi Matmurodov) tuzildi.

Polvonniyoz hoji Yusupov (1861-1936) ga Rossiya hukumati va rus qo'shinlari bilan munosabatlarni barkorlashtirish vazifasi yuklatildi.

Muvaqqat qo‘mita tarkibiga keyinchalik yana 19 kishi, shuningdek, 7 turkman kiritildi. Yosh xivaliklar Xiva xonligida hokimiyatni boshqaruvchi hukmron kuchga aylandi.

1917-yil mayda Majlis raisi Boboovun Salimov boshchiligidagi delegatsiya Muvaqqat hukumat vakillari bilan muzokara o‘tkazish uchun Toshkentga jo‘nadi. Asfandiyorxon Muvaqqat xukumatning Xivadagi vakili general Xo‘ja Mirbadalov (millati tatar) boshchiligidagi harbiy kuchlarga tayanib, iyunda Majlisni tarqatib yubordi.

Xorazmda “Yosh xivalik”lar harakatining vujudga kelishi va uning ham istibdodiga qarshi Hurriyat uchun kurash rahnomalaridan biri Polvonniyoz Hoji Yusupov o‘zining kundaliklarida shunday fikrni keltiradi: “Ma‘lum bo‘lsinkim, yakun mahorabasidan so‘ng Gosudarskiy Duma tashkil bo‘lib, har turl inqilobchi gazetlar chiqqa boshladi. Orinburun ham “Tarjimon” gazetasini olib o‘qib yurar edim. Ham o‘z-o‘zimga adisha qilur edim. Zolim Isfandiyor yo‘q bo‘lib, mamlakatimiz qachon hurriyat qilur ekan, deb. Yakun mahorabasidan so‘ng chiqqan gazetalar har turlik taraqqiyatlarga doir maqolalar yoza boshladilar. Man olardin har turli gazeta, jurnallar olib, o‘qiy boshladim. Ondan so‘ng har kunda ishtihodim ziyoda bo‘lib, Hurriyat uchun talasha boshladim. Ba‘zi hurriyatparvar birodarlar ham qo‘shilib, hurriyatga doir muzokara qila boshladik. Shu jumladan, shahidi hurriyat Husnmu hammod devonbegi birodarlari Shixnazarboy, Omongaldi, Otajon mahram, Xudoybergan devon, Nazar Shashkarov, Bobojonboy, No‘g‘ay Hasan Allakbarov ishtirok qilur edilar. Oqibatda Xorazm ham keng hajmdagi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayot oqimiga qo‘shila boshladi. Ob‘ektiv ijtimoiy qonuniyatlar oqibatida gar hukumatining irodasiga va mahalliy feodallarining qarshilik ko‘rsatishlariga qaramasdan, o‘lkaga rus, tatar, ozarbayjon ziyolilari orqali siyosiy-madaniy ta’sirlar, yangi ijtimoiy tafakkurlar turli yo‘llar bilan tarqalishi avj oldi.

Bular Xorazm shoir-tafakkurlarining dunyoqarashlarida o‘zgarishlarning, yangi ijtimoiy fikrlarning shakllanishiga olib keldi. Ma‘rifiy -jadidchilik falsafasi XIX asrdagi va bundan oldingi Xorazm xalqining ijtimoiy fikrlari XIX asr boshidagi milliy istiqlol g‘oyalarining rivojlanishiga va uning keyingi yuksalish pog‘onaloriga asos bo‘ldi. Shu bila birgalikda, kelajak yo‘nalishini ham belgilab berdi.

XIX asrdagi shoir-mutafakkirlar: Muhammad Yusuf Bobobek-Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mullamuhammad o‘g‘li - Sufi (1860-1916), Avaz O‘tar o‘g‘li (1884-1919), Muhammad Rasul Polvonniyoz o‘g‘li – Mirzo (1840-1922), Abdurazzoq Abdujabbor o‘g‘li – Faqiriy (1880-1925), Muhammad Hasan Ho‘ja tabib o‘g‘li – Mutrib (1860-1923), Ahmadjon Tabbiy (1969-1910), Komiljon Ismoilov Devoniy (1887-1938), Muhammad Yusuf Xarratov - Chokar (1889-1952), Safo Ollaberganov Mug‘anniy (1882-1938), Qurbon ota Ismoilov (1888-1946), Otaniyoz qori Niyoziy (1884-1929), Xonimjon xalfa Saidamad qizi (1859-1926), Onabibi qori Otajonova – Ojiza (1898-1951) kabi shoir va san‘atkorlar bu davrda mavjud bo‘lgan ma‘rifatparvarlik oqimini paydo qilishda ularni bog‘lovchi ko‘prik bo‘ldilar. Ularning asarlari va manbalarini aniq ifodasiga tayangan holda shularni ta’kidlab o‘tish lozim, ya’ni XX asr boshlariga kelib Chorizmning mustamlakachilik siyosati butun turkiy xalqlar – Markaziy Osiyo, Krim, Qozoq tatarlari va boshqa hududlarda yashayotgan barcha musulmonlarni o‘g‘ir ahvolga solib qo‘ydi.

Markaziy Osiyo XIX asrning o‘rtalaridayoq Rossiyaning homashyo zaminiga aylantirilgan edi. Paxta, chorva, meva-chevalardan tortib, tilla-pillagacha Rossiyaga tortib ketilaverdi. Mahalliy aholining tili, dini, milliy qadriyatlari, urf-odatlar, madaniyati, tarixi oyoq osti qilindi. Eng qimmatli ma’naviy asarlari, qo‘lyozmalar, o‘tmish obidalari olib ketildi. Bu ishlarni Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan rus amaldorlari, Rossiydan kelgan sharqshunos olimlar amalga oshirdilar. Yerli xalqni, iloji boricha, o‘zligini, tarixini, insoniy huquqlarini unutish uchun kurash chora-tadbirlari ko‘rildi. Lekin matbuotda esa bor haqiqatni yashirib, Rossiya Turkistonga ilm-ma‘rifat keltirdi, degan mazmunda jar solinardi.

Natijalar. Ko‘p yillar davomida bu masalani turli manbalar, hujjatlar va shoirlar, mutafakkirlarga asarlari orqali o‘rganishimiz natijasida bizga ma‘lum bo‘lishicha, yuqoridagi fikr qilgan jarayonlar mahalliy millat ziyolilarini tashvish istirobga solgan edi. Natijada mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashlar zaminida jadidchilik harakati, xivaliklar,

buxoroliklar kabi birlashmalar paydo bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, asr boshlarida shakllangan bu harakat tezda butun turkey xalqlar, xorijiy sharq musulmonlari o'rtasiga yoyildi.

Jadidchilik harakati va o'rta davr yoshlar birlashmalari XX asr ijtimoiy hayotining mohiyatini ifoda etadi. Chunki ular tarix maydoniga, avvalo, miliy mustaqillik uchun kurash, mustamlakachilikka, birovlar yer-suvini, boyligini talon-taroj qilishga qarshi kurash Shiori bila chiqdilar.

Shuning uchun ham ular xalqimizni mustaqillik sari birlashtiruvchi kuch-qanoat sifatida aholining ongli qismini tezda o'zlariga jalb qilib ergashtirdilar. Ayniqsa, yosh ziyolilar, olimlar, shoirlar, yozuvchilar, huquqshunoslar, matbaachilar, ilg'or fikrli savdo-tijorat hodimlari jadidchilik harakatining eng oldingi safida bo'ldilar. Ular hayotni, voqea-hodisalarni, milliy mustaqillik va qaramlikni falsafiy idrok etishga qodir bo'lib, o'z xalqi, millati istiqbolini to'g'ri ko'ra bildilar. Jadidlar o'z xalqi, millati, milliy qadriyatlarini, ilg'or urf-odatlarini, tarixi, madaniyati, yodgorliklarini himoya qilish uchun kurashib, katta obro'-e'tiborga ega bo'ldilar. Lekin oktabr to'ntarilishidan keyingi yillar mobaynida XX asr ijtimoiy hayoti, jadidchilik tarixi buzib talqin etildi.

Rossiyaning Turkistondagi bosqinchilik harakati esa oqlab ko'rsatildi. Bu jarayon hamma sohalarda o'z aksini topdi. Jumladan, Xorazm tarixi bilan qiziquvchi tadqiqotlar turkman tarixchi olimlari G'.Nenesov, K.Muhammadberdiyev, rus tarixchi olimi I.B.Pogorelskiy, o'zbek tarixchi olimi N.Qalandarov va boshqalarning ilmiy ishlarida bu masalalar aniq ifodasii topgan, chunki ular haqiqatni aytishga qo'rqar edilar. Bu tadqiqotlar jadidchilar va "Yosh xivalik"lar rahnamolari – Polvoniyoz Hoji Yusupov kabilarga rahmatlar aytish o'rniga ularning boshiga tuhmat va bo'xtonlar yog'dirdilar. Ularning bo'yinlariga "xalq dushmani", "burjua millatchisi" yorliqlarini osib haqiqiy insonlarni haqorat qildilar.

O'sha davr olimlar orasida haqiqat uchun, milliy qadriyatlarimizni avaylab saqlash yo'lida jonini qurbon qiladigan mard insonlar ham topilar edi. Ular Kommunistik partiya taqibiga qaramay, "Yosh xivaliklar" rahnamosi Polvoniyoz Hoji Yusupov kabilarning yozib qoldirgan asarlari, "Xotiralari" haqida haqiqatni aytishga jur'at qilganlar.

Muhokama. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi I.Mo'minov, tarix fanlari nomzodi L.M.Landa, tadqiqotchi M.X.Aliakbarovlar shular jumlasidandir. Ko'rinib turibdiki, XX asr ijtimoiy hayot va jadidchilik harakatiga ba'zi bir olimlar g'ayriilmiy baho berib, O'rta Osiyo xalqlarining bu davr tarixini buzib ko'rsatishga harakat qilsalar, haqiqiy vatanparvar, erkparvar olimlar esa hech narsadan qo'rqmasdan, haqiqiy tarixni ochib berishga harakat qilganlar.

Ana shu jarayonda jadidchilik harakati va "Yosh xivaliklar" faoliyatlari bilan yaqindan tanishishimiz, umuman, Turkiston o'lkasida bu harakatni mazmuni va mohiyatini O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayonida tutgan o'rni kabi masalalar bilan qiziqishimiz, ular haqida ma'lum manbalarga ega ekanligimiz, aynan, bugungi maqolamizni mavzusini "Yosh xivaliklar" va jadidchilik harakati - mustaqillikni ma'naviy-marifiy yo'naltiruvchi kuchi sifatida deb tanlashimizga sababchi bo'ldi.

Shu bilan birga, milliy ma'naviyatimiz, milliy mafkura taraqqiyoti bosqichlarini yaxlit holda va izchillikka ega o'lgan muntazam hodisa sifatida olib qarash, uning asl maqsadi va mohiyatini ochib berish hamisha dolzarbdir. Turli manbalarda yangi g'oyalarga o'z vaqtida munosabatimizni bildirib, o'zimizda mavjud bo'lgan g'oya Turkiston jadidchilik harakati, "Yosh xivaliklar" birlashmalarining faoliyatari xalqimizni mustaqillik sari birlashtiruvchi kuch ekanligi kabi sahifalarni hozirgi davr yoshlari ongiga yetkazish va ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan o'rinli foydalanish bir qator fikrlarni, yondashuvlarni keltirib chiqardi.

Xulosa. Jadidlar odamlar ongida o'ziga xos o'zgarish yasashning uddasidan chiqa bildi. Jamiyatni o'zgartirish konsepsiyasini yarata oldi va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi. Yangi avangard jadidlar adabiyoti, yangi dramaturgiyaga asos soldi. Turkistonda birinchi teatrni ishga tushirdi. Ta'limning yangi shakllarini yaratdi. Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi - jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarda innovatsion g'oyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o'zgartirishni, ularning ma'naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda

milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash g'oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g'oyalari bilan yo'g'rilgan maqsadni ilgari surgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Алимова Д., Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость, Т., 2000;
3. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, T., 1999;
5. Matkarimov M., Xorazm respublikasi: davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi, Urganch, 1993;
6. Matniyozov M., Sotlikov A. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. Urganch, 1999.
7. Markaziy [Osiyo](#) XX [asr](#) boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, T., 2001.
8. Nurmuhammad Qobulov. Xorazm adabiy muhiti. Urganch, 1992.
9. Yusupov Polvonniyoz Hoji, Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar), Urganch. 1999
10. O'zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbat materiallari. 1998 yil 9 oktyabr. –T.: Eldinur nashriyot uyi, 1998.